

MARKAZIY OSIYO MARVARIDI: “OROL DENGIZI”NING ACHCHIQ QISMATI

Xudayberdiyev Oybek Samad o'gli

“Ijtimoiy-siyosiy fanlar instituti” “Tarix”

ta'lim yo'nalishining 1-kurs magistr

Тел: (90) 068 62 62

Anotatsiya: Bugungi davrda dunyo mamlakatlari rang-barang ekalogik muammolar bilan uzluksiz yuzlashmoqda. Xususan Markaziy Osiyo mintaqasi uchun xarakterli ekalogik tashvish sifatida Orol dengizi fojeasi yaqqol namoyon bo'ladi. XX asr o'rtalaridan to bugunga qadar qurib sho'r qumloqqa aylanayotgan va dengizdan ko'ra ko'lmakka o'xshab qolgan Orol dardiga quloq osamiz. Orol fojeasiga shunchaki befarq qarash bilangina muammodan qochib bo'lasligi sabablarini tahlil etamiz. Zamonamiz fojeasining qay tarzda paydo bo'lgani va bu qanday salbiy oqibatlariga olib kelayotganligiga atroflicha to'xtalamiz. Muammoning tub ildizlariga yechimlarni tadqiq qilganimiz holda bu yo'ldagi ekalogik muammoni bartaraf etishda qaysi omillarga e'tibor berish lozimligi va bu borada Markaziy Osiyo davlatlari hukumatlarining o'zaro birdamligi va sobitqadamligi zaruratini tahlil etamiz. Zero Orol dengizi bir paytlar bizni oq yuvib-oq tarab, boqib voyaga yetkazgan biz e'tibor qaratishimiz va parvarishlashimiz zarur bo'lgan keksayib munkaygan mehrtalab onamizga o'xshaydi.

Kalit so'zlar: ekalogiya, ekalogik fojea, Orol fojeasi, Orol dengizi, chuchuk suv muammosi, tabiatni asrash, transchegaraviy daryolar, global ekalogik fojea, markaziy Osiyoda suv muammolari;

Inson tabiatning shunday bir “imtiyozli jonzoti”-ki u: nafaqat “Osmono'par” binolar qurib' bog'-u rog'lar barpo etaoladi va aksincha o'zi uchun ortiqcha tuyilgan

tabiat manzaralarini tak-tomiri bilan quritishni ham “boplaydi”. Shonli tariximizga nazar solib qaraganda: aqli ojizimiz qanchadan-qancha xonlar-u xonliklar, amir-u bekliklarning, sulola-yu saltanatlarning taraqqiyot va tanazzularini idrok etarkan-u afsuski “ha” – deganda ona tabiatimizning xonliklar kabi tanazullini idrok etmas ekan. Yo’qsa, “Chor Rossiyasi”, “Sovet sotsialistik respublikalari ittifoqi” kabi mustamlaka va istibdodni anglatuvchi asoratli atamalarni qo’llayotgan chog’imizda bu atamalar faqatgina mustaqillik va hurriyatimiz ramzlari bo’lgan: “Buxoro amirligi”, “Qoqon xonligi”, “Xiva xonligi”ga qo’shib “Orol dengizi”ni ham quritganini bot-bot eslagan bo’lar edik. Albatta “Orol fojeasi” haqida ko’p va ho’p gapirishgan, gairilmoqda va gaprishadi ham. Ammo har safar bu fojeani yodga olarkanman “Markaziy Osiyo Marvaridi” aynan nimasi bilan ajdodlarimiz hayotida ahamiyat kasb etgani va biz va kelajak avlod nimani yo’qotganimizni tushinishga urinaman. Keling buni atroflich tahlil qilsak. Zero nimaga egalik qilganingni bilmasdan turib nimani yo’qotganingni tushinish mahol ish.

Orol dengizi – Markaziy Osiyodagi eng katta ko’l. uning yarmidan ko’progi aniqrog’i janubi-g’arbiy qismi O’zbekistonga va shimoli-sharqiy qismi Qozog’istonga tegishli. Kattaligi bo’yicha dunyoda to’rtinchi (Kaspiy dengizi, Amerikadagi – Yuqori ko’l, Afrikadagi – Viktoriyadan keyin to’rtinchi) o’rinda turgan va Yevrosiyo materigida Kaspiydan keyin ikkinchi hisoblanadi. Havzasining maydoni 690 ming kvadrat kilometr. Unda 300 dan ortiq orollar mavjudligi sababli ham Orollari ko’p dengiz ma’nosini ifoda etuvchi Orol dengizi atamsi qo’llanilgan. Orol dengizi 1960 – yillargacha 68,000 ming kvadrat kilometr bilan kattaligi bo’yicha jahonda to’rtinchiligini saqlab tura oldi. Ammo bugunga kelib u suv sathining 90% dan ko’p miqdorini yo’qotgan “Kemalar qabristoni”ga aylandi.¹

Yuqoridagi debocha aslida Markaziy Osiyo marvaridining el biladigan qismi albatta. Ammo tarixan “Kemalar qabristoni”ga aylangan bu ekalogik mudhish manzara qolgan tarixiy yodgorliklar, ansor-u antiqalardan farqli ravishda rekansturksiya

¹ https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Orol_dengizi

qilinmaydi. Afsuski bu ekalogik fojeaning zalvorli yukini yaqin kelajak avlod to'lashga majbur. Aslida esa birmuncha oldin bu obihayotga to'la keng sarhadli ko'l o'z bag'rida floras va faunaning noyob turlarini mujassam etgan va mahalliy aholini ohangrabodek o'ziga jalb etib Vatan tutishga hozir etgan serunum hudud va madaniy hayotdan tortib ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy ta'sir va potensialga ega timsol ham edi. Ayniqsa Xonliklar davrida uning nufuzi yanada yuksak bo'lgan xususan Xiva xonligi uchun bu hudud bebaho edi. Yaxshisi "Kemalar qabristoni" yog'e "Markaziy Osiyo marvaridi" tarixini bir boshdan taftish qilsak ayni muddao bo'lar edi. Aslida Orol dengizi bundan 35000 ming yil beri mavjud bo'lib kelgan.² Uning aynan "Orol dengizi" nomi XVII asr oxirida paydo bo'lgan. Bunga sabab sifatida shu asrda suv sathining pasayishi natijasida unda yirik orollarning xususan: borsakelmas, Uyg'onish kabilaring vujudga kelishi natijasida turkiycha "orollari bor dengiz" jumlasini ifodalovchi "Orol dengizi"termini muomilaga kiradi. Taxminam 2600-3000 yil avval essa Orol transgressiyasi sodir bo'ladi. Tabiiyki mo'l -ko'l suv resurslaring to'planishi va Amudaryo havzalarining unumdor cho'kindilari samarisi o'laroq eramizdan avvalgi VIII asrda antik Xorazimda dehqonchilik o'choqlari va unga asoslangan ilk Shahar va davlatlar ayni Orol bo'yida tabiiy ravishda vujudga kela boshlagan. Bundan taxminan 1500-yil avval Orol dengizida regressiya hodisasi ro'y berib dengiz sathi Keskin ravishda aniqrog'i +30 metrgacha paslashi ro'y berdi. Bu esa sug'orma dehqonchilkning rivojlanishi, sug'orish tizimlaring yuksak shakllanishi, hamda Amudaryo deltasida katta bug'lanish maydonlariga ega bo'lgan chuchuk suvli ko'llarning paydo bo'lishi bilan xarakterlanadi. Orol dengizining ajdodlarimiz va ularning hayotiga ta'siri benihoya katta bo'lgan. Katta-yu kichik shaharlar va madaniyatlar paydo bo'lishi yoki barham topishida u benihoya muhim rol o'ynagani bahslashilmaydigan mavzudir. Xususan hozida topilgan Oltin O'rda davriga mansub deb hisoblangan ikki manzilgoh va maqbaralarning qoldiqlari taxminiy hisob-kitoblarga tayanilganida 1200 yil muqaddam vujudga kelgan Oks regresoyasi samarasi bo'lganligini ta'kidlash o'rinli albatta. Tarixan olib qaralganda Orol sathi davrlar mobaydida tinimsiz o'zgarib goh

² Mamashokirov S. Vahimami yoki haqiqat.T.: "Iqtisod-moliya" 2012. 69B.

sayozlashgan, goh sathi ko'tarilgan va bu albatta ajdodlar hayotida o'z izini qoldirgan. Orol dengizidagi so'ngi sathning o'sishi bu Amudaryonig to'liq Orolga quyilishi davri sifatida eslanadigan XVII asrdan boshlanib XIX asrning boshlariga qadar davom etgan. Orol dengizini ilk bora ilmiy tahlil qilish va xaritaga tushirilishi 1849-yilda A.Butakov boshliq rus ekspeditsiyasiga Nasib etdi. 1850-yilda Orolning ilk xaritasi nashr etilib bu sharafiga taniqli ukrain yozuvchisi va shoiri T.Shevchenko Musharraf bo'ladi. Afsuski XIX asrning 80-yillaridan boshlab Orola suv sathining paslashi ro'y berdi va bu jarayon turli tabiiy o'zgarishlar bilan 1961-yilgacha nisbatan mo'tadil davom etdi. Hamma muammo ayni 1961-yildan boshlandi. Xususan ayni shu ramziy yildan boshlab Orolning tabiiy rivojlanish davri o'z yakuniga yetib, dengiz sathining halokatli regressive chekinish davriga qadam qo'ydi. Bungacha esa Orol dengizi baliq ovlash va baliqchilik uchun ayni muddao bo'lgani bois Sovetlar davrida Orola baliq ovlash hajmi yildan yilga ortib brogan. Xususan Orola asosan Orol lasosi, uzunmo'ylov, leshch, sazan, vobla, sudak kabi baliq rutlari ovlangan bo'lib, eng samarali yillarda dengizdan 50 ming tonnagacha baliq ovlanganining o'ziyoq Orol dengizining ahamiyat Sovet ittifoqi davrida salmoqli bo'lganligiga yuksak dalildir. Shunga qaramay sobiq Sovet ittifoqi rahbariyatining dengiz bilan rejalari bo'lakcha bo'lib chiqqan edi. Xususan: "kolxoz" va "sovxoz"larning ko'payishi va qishloq xo'jaligida suvga ehtiyojning ortib borishi fonida Amudaryo – Qoraqum kanalining qurilishining boshlanishi va 1962 – yilda bitkazilishi ortidan Orol fojeasi bo'y ko'rsatdi. Bunga asosiy sabab esa bitqazilgan kanal Amudaryoga quyiladigan jami suvning 45% dan ortig'ini tortib olayotganida edi. so'nggi hisob-kitoblarga tayaniladigan bo'lsa Orol fojeasining tub zahirida xususan suv sathining sayozlashuviga ta'sir etgan omillar qatorida 23% xo'jalik va sug'orish tizimlariga suv yo'qotilishi, 15% iqlim o'zgarishi omillari, 62% suvning yerga singib ketishi natijasida quriganligi qayd etilgan.³ Shubasiz Orolga quyiluvchi suvlarning betartib va beto'xtov paxta dalalariga haydalishi ortidan vujudga kelgan bu tanazullni nafaqat bugungi kunda tahlil qilish balki 1960 yillar yakuniga qadar oldini olish ya'ni Orolni qutqarish ham mumkin edi.

³ <https://karakalpakstan.travel/media-and-resources-3/?lang=uz>

O'tgan asrning 60-yillari oxirida sobiq SSSRning yirik olimlari A.I.Simonov va N.P.Goptarevlarning hisob-kitoblarida Orol dengizi qurishi bilan, uning hududida madaniy dehqonchilik uchun o'zlashtirilgan 5 million gektar yer yaroqsiz holga kelishini asoslasgan bo'lishsa⁴, SSSR FANing muxbir a'zosi V.Kotlyakov XXI asr boshlariga kelib Orol dengizining umumiy maydoni 4000-5000 kvadrat kilometr ga tushib qolishini bashorat qilgan edi⁵. lekin sobiq SSSR rahbariyatini qo'rquvga soladigan yagona muammo paxtaning serhosilligi-yu uning terimi bo'lib, hamma e'tibor paxtaga va ayni damda shu mantiqdan kelib chiqib qolgani bir pul edi. tarixiy o'xshashlikni qarangki mustabid tuzum nafaqat xalqimizni o'zligidan ayrishga, tarxini yo'q qilishga va shunga hamohang ravishda Orolni ham xalqimiz tarixini moziyga ko'mgani kabi yo'q qilishga urundilar va afsuski tarixizning ajralmas qismi va hayotiy manbayimiz bo'lgan Orolni quritishga erisha oldilar. Demakki mustamlakachilar nafaqat tariximiz va ananalarimizni, madaniyat-u ma'naviyatimizni, iqtisod-u siyosatimizni yo'q qilmoqqa kirishishdi va balki ekalogiyamizni ham jar yoqasiga olib kelib qo'yishdi. Ajdodlarimiz asrlar mobaynida ko'z-qorachig'idek asrab ehtiyotkorona foydalangan ekalogik merosni zavolga yuz tutkazishdi. Ammo bu haqida negadir og'iz juftlab gapirishni har doim ham o'rinli sanamaymiz. Sababi esa oddiy: mustabid tuzum va uning manqurt mashinasi boshimizga shu qadar ko'p jabr-zulm solganki ularning oldida Orol fojeasi holvadek tuyiladi go'yo.

O'tgan asrning 80-yillaridayoq kosmik kuzatuvlar Orol dengizining qurigan maydonidan ko'tarilgan 15-17 million tonna tuz va qum zarralari katta maydonlarni yaroqsiz ahvolga keltirishi aniqlangan⁶. Xo'sh, bu nima degani? Qisqasi shuki, Birinchi galda Markaziy Osiyoda xususan bizda sodir bo'lgan va bo'layotgan yer sho'rlanishi muammosiga asosiy sabab sifatida yana va yana "fojea sahnasi"ga Orol dengizi chiqadi. Zotan shundoq ham qurg'oqchilik va iqlim o'zgarishlaridan jabr chekayotgan va chuchuk suvga ehtiyoji ortib borayotgan va dehqonchilikda suv

⁴ Ковалев В.И. Море, и хлопок... Судьба Арала. Ташкент, «Мехнат»1988. -С.161.

⁵ Котляков В. Можно ли спасти море? Судьба Арала. Ташкент, «Мехнат»1988. -С.184.

⁶ Хабибуллаев П. Арал – неоплаченный кредит. Судьба Арала. Ташкент, «Мехнат»1988. -С.170.

muamosi ko'zga tashlanayotgan suv startegik ahamiyatga ega bo'lib borayotgan transchegaraviy daryolar muhim hayot va yashash manbayiga aylanayotgan shunday bir davda birgina tabiatni eksplutatsiya qilish asnosida vujudga kelgan "tarixiy xato" badalini eng ayanchlisi mustabid tuzum yoki uning rahnamolari emas aksincha, biz mahalliy aholi O'zbekistonimiz boringki Markaziy Osiyo chekmoqda. Afsuski muammolar ko'p yechimlar esa juda kam!

Shunday yechimlarga ham toxtalish fursati yetdi nazarimda. Xususan bu boradagi tadqiqotlarni tahlil qilgan holda Orolni qutqarishni nazarda tutuvchi asosan ikki yechim uslubi mavjud deyish mumkin. Xususan nisbatan klassik yechim sifatida ekstraregional lohiyalarni qayd etish o'rinli albatta. Unga ko'ra Orolni boshqa hududlardan suv keltirish yo'li bilan saqlab qolish ifoda etiladi. Masalan Sibir daryolarini qo'shni davlatlar orqali Orol dengiziga oqizish loyihalri bir necha martalab muhokama qilib ko'rilgan. O'z vaqtida bu G'arbda: "XX asr avantyurasi" deb nom olganligi bejiz emas. Boisi bunday transchegaraviy "Mega" loyihalar o'tamurakkab bo'lib 2700 km dan ortiq suniy daryoni qurish yoki quvr o'tkazish juda uzoq yillarni va behisob pullarnisarflanishi demakdir. Nega deganda bu davlatlararo murakkab shu bilan birga amalga oshish ehtimoli juda past bo'lgan jarayondir. Hatto Kaspiy dengizidan suv yo'naltirish masalasi ham u qadar ijobiy yechim sifatida qaralmagan. Bunga bir necha omillar bevosita sun'iy to'siq yaratadi. Masalan avvalo Kaspiyning tabiiy joylashuvi Orolga qaraganda 50-metr pastlikda joylashgan bo'lsa, keying muammo kaspiy suvining o'tasho'rliigi va bu Orolni namokobga aylanishi deyilsa asosiy to'siq strategik jihatdan Kaspiybo'yi davlatlarining har biri bilan til topishishning oson emasligi yoxud murakkabligidadir. Qolaversa, bu loyiha amalga oshirilgan taqdirida ham Orolbo'yi davlatlarining kaspiybo'yi davlatlariga qaramligi vujudga kelishida. Boshqa tomondan esa bu hodisa yechim bilan birga boshqa ekalogik muamolarni olib kelishi ham mumkin. Chunki ikki ko'ldagi suv tarkibi bir biridan Keskin farqlidir. Yaxshisi ekstraregional loyihalardan voz kechib intraregional loyihalar ustida bosh qotirish ma'quldek tuyiladi. Ammo bu ham o'ziga yarasha murakkabliklarga to'lib-toshgan. Bu uslub o'z navbatida Orolbo'yi havzasidagi

suvlardan oqilona foydalanish va yaqin atrofdagi xususan transchegaraviy va tarixiy quyilish oqimiga ega bo'lgan Amudaryo va Sirdaryo havzasidagi suvlarni imkon qadar tezroq ammo vaziyatga ko'ra cheklangan miqdorda bo'lsada Orol dengiziga yo'naltirishni nazarda tutadi. Ammo bunga yetarli to'siqlar ham yetarli. Xususan Tojikistonning Amudaryo va u orqali Orolga quyiladigan daryolarda elektr energiyasini olish maqsadida sun'iy to'g'onlar qurishi ekalogik yechimni birmuncha murakkab ahvolga solmoqda. Boz ustiga faol sesmik nuqtada barpo etilayotgan bu to'g'on va GES larning o'zi hali kelajakda xatar uyg'otishi mumkin. Yuqoridagilarni hisobga olgan holda xulosa o'rnida ta'kidlash zarurki, Orol dengizi va unga tutash hududlardagi ekofojeali vaziyatlar faqat bir ko'lning qurishini ifodalamaydi. Aksicha u juda keng ma'no kasb etgani holda birinchi navbatda mahalliy o'troq aholining ko'chishiga yaqin atrofda yashovchi aholining esa turli kasaliklarga moyiligi ortishiga va bu hududlarda tarixan yashab kelgan insonlarning ichki migratsiyasiga sabab bo'lgani holda Orolidagi flora va fauna olamining butkul tanazzuliga ham sabab bo'ladi. Mavsumiy cho'llanishlar ortib, tobora qahrab qurib borayotgan Orol qumloqlaridan ko'tarilgan chang va qum eng ayanchlisi tuz zarrachalari havoga ko'tarilib yillar sayin hosildor yerlarni sho'rlantirishi hisobiga ularni ham yaroqsiz ahvolga olib keladi. Eng fojealisi bu jarayon to'xtamaydi aksincha kuchayib boradi. Yaqin o'n yilliklarda minglab killometrli serunum, serhosil yerlarning sho'rlanib yaroqsiz ahvolga kelishini kuzatish mumkin. Afsuski, bu bir millat yo bir mamlakat mustaqil hal etaoladigan muammo emas. Agar Markaziy Osiyo davlatlari o'zaro qo'lni qo'lga berib hamjihat ish yuritib muqobil yechimlarni ishlab chiqsa yoki mavjudlarini hayotga tadbiiq etsa o'ylaymanki muammo bartaraf etiladi. Chunki azal – azaldan ildizi bir bo'lgan davlatlarmiz va mushtaraklik ko'rsatgan muammoni albatta yecha olamiz.